



ABU ALI IBN SINO: SHARQ GAVHARI – JAHON MEROSI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TEZISLAR TO'PLAMI

ABU ALI IBN SINO (AVICENNA):
PEARL OF THE EAST – WORLD HERITAGE
THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
COLLECTION OF ABSTRACTS

АБУ АЛИ ИБН СИНО:
ЖЕМЧУЖИНА ВОСТОКА – ВСЕМИРНОЕ НАСЛЕДИЕ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
СБОРНИК ТЕЗИСОВ

September 12th, 2025

"Tashkent Pharma Park"

Tashkent region / Uzbekistan

IBN SINO TA'LIMOTI VA ZAMONAVIY ASOSLAR

N.H.Habibullayeva, M.M.Ziyamuhamedova

Toshkent farmatsevtika instituti, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Mavzuning dolzarbligi: Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980–1037) “At-Tib al-Qanun” (“Tib qonunlari”) asarida farmatsevtika va dorishunoslikning nazariy va amaliy asoslarini mukammal yoritgan. Uning asarlarida shamcha (suppozitoriy) shaklidagi dorilar ham alohida o‘rin egallagan bo‘lib, shamchalarni ichki a‘zolarga ta’sir ko‘rsatish, mahalliy yallig‘lanishlarni kamaytirish, isitmani tushirish va og‘riqni yengillashtirish maqsadida tavsiya qilgan. Alloma shamchalarni tayyorlashda tabiiy yog‘ va o‘simlik moylarini (masalan, zaytun moyi, bodom moyi) asos sifatida ishlatgan, shuningdek, mum va boshqa quyuqlashtiruvchi moddalar qo‘shib, dori moddasining barqarorligini oshirishga e’tibor qaratgan. Ibn Sino shamchalar yordamida ichak yallig‘lanishlari, gemorroy, ich qotishi, ayollar kasalliklari, isitma va ayrim umumiy infeksiyalarni davolash usullarini tasvirlab bergan. Bugungi kunda ham Ibn Sino ko‘rsatgan tavsiyalar zamonaviy farmatsevtika texnologiyasida o‘z amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning shamcha dori shakliga bergan ta’rifi va qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalari farmatsevtlar uchun tarixiy va ilmiy manba sifatida muhimdir. Zamonaviy tadqiqotlarda ham rektal va vaginal dori shakllari ta’sir etuvchi moddani yetkazib berish tizimlari samaradorligi, dori moddasining bioekvivalentlik ko‘rsatkichi va bemorga qulayligi nuqtayi nazaridan afzalligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning maqsadi: Ibn Sino ta’limoti va zamonaviy asoslarni o‘rganishdan iborat.

Material va usullar: Asos tanlovi shamchani erish harorati, dori moddasining ajralib chiqarish tezligi, biologik moslik va saqlash barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Shamcha tayyorlashda uch asosiy turdagi asoslar qo‘llaniladi: 1. Yog‘li asoslar (an’anaviy); 2. Suvda eruvchan asoslar; 3. Zamonaviy va alternativ asoslar. An’anaviy asoslar. Ko‘p yillar davomida lipofil (yog‘li) asoslar, xususan, Theobroma oil (kakaoyog‘i) keng qo‘llanib kelinmoqda. U tana haroratida erib, dori moddasini tez ajratadi, biologik mutanosib va toksik bo‘lmagan xususiyatga ega. Shuningdek, glitserinli jelatin asoslari ham gidrofil shamchalarda ishlatilib, ko‘proq mahalliy ta’sirli preparatlar uchun qo‘llanadi. Vazelin, lanolin kabi moddalar asos sifatida qo‘shimcha barqarorlik berish uchun ishlatilgan.

Zamonaviy asoslar. Hozirgi davrda polimer asoslar — polyethylene glycol (PEG-1000, PEG-1500, PEG-4000) va maxsus ishlab chiqilgan qattiq yog‘lar (Suppocire®, Novata®) keng qo‘llanmoqda. Ularning har biri fizik-kimyoviy barqarorlik, erish harorati, faol moddani ajralib chiqarish tezligi va bemor uchun qulaylik darajasi bilan farqlanadi. Bunday asoslarda tayyorlangan shamchalar biofarmatsevtik xususiyatlari yuqori bo‘lib, dori moddasining farmakokinetikasini boshqarish imkonini beradi. Zamonaviy asoslar yuqori mexanik mustahkamlik, mikrobiologik xavfsizlik va uzoq saqlanish muddatiga ega. Bundan tashqari, lipofil va gidrofil asoslarning kombinatsiyasi dori moddasining ajralib chiqish samaradorligini oshiradi.

Xulosa: Ibn Sino ta’limotida shamcha dori shakli farmatsevtik amaliyotda muhim o‘rin egallagan bo‘lib, uning ilmiy asoslangan yondashuvlari hozirgi zamonaviy texnologiyalarda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. An’anaviy asoslar farmatsevtika amaliyotida o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgan bo‘lsa-da, zamonaviy polimer va maxsus yog‘li asoslar dori yetkazib berish tizimida kengroq imkoniyatlar yaratmoqda. Kelgusida biopolimerlar va modifikatsiyalangan lipid asoslar ustida ilmiy izlanishlar jadallashishi, lokal faol moddalarga mos, shilliq qavatga zarar yetkazmaydigan, ekologik asoslarning yaratilishi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

АБУ АЛИ ИБН СИНО И ЕГО УЧЕНИЕ О БОЛЕЗНЯХ ПЕЧЕНИ

Ш.С.Кодирова, М.Л.Нематуллаева

Бухарский государственный медицинский институт, Узбекистан, г. Бухара

Ибн Сина рассматривал печень как один из важнейших органов человеческого организма, от состояния которого зависит деятельность всего тела. Поэтому он придавал